

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 409 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARINING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	
АВТОМАТИЗИРОВАННАЯ СИСТЕМА РАСЧЁТА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОРГАНИЗАЦИИ	172
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
BLOCKCHIAN, IOT (INTERNET OF THINGS) NING IQTISODIY SOHALARDA QO'LLANISHI	178
Avazov Ergash Xidirberdiyevich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI MOLIYAVIY BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA EKONOMETRIK TAHLILLAR ASOSIDA KELGUSI YILLAR PROGNOZI.....	182
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
QISHLOQ XO'JALIGI KLASSTERLARI MOLIYAVIY HOLATINING NAZARIY JIHATLARI	190
Dildora Yuldasheva	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINING HOLATI	194
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
MAHALLA BUDJETI VA SOLIQLARNING YIG'ILUVCHANLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	200
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	



BUDJET TASHKILOTLARIDA QURILISH-TA'MIRLASH XARAJATLARI HISOBINING USLUBIY JIHATLARI.....	206
Azizova Zilola Lochinovna	
KOSHI – BUNYAKOVSKIY – SHVARS INTEGRAL TENGSIZLIGI VA UNING IQTISODIYOTDAGI ROLI.....	212
Saipnazarov Shaylovbek Aktamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В АГРОПРОДОВОЛЬСТВЕННЫЙ СЕКТОР УЗБЕКИСТАНА: ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ, ПЕРЕРАБОТКА БИОМАССЫ И СТРАТЕГИИ СОКРАЩЕНИЯ ПОСТУБОРОЧНЫХ ПОТЕРЬ	219
Эгамбердиев Хумоюн Хамрокулович	
HOVUZ BALIQCHILIGI XO'JALIKLARIDA REJALASHTIRISHNING MUDDATLARI VA BOSQICHLARI	227
Dosmuratova Shaxista Kengashovna, Menglikulov Bakhtiyor Yusupovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	233
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
KON-METALLURGIYA KORXONALARINING KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA KPINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	237
Ergashov Botirjon Ergashovich	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	245
Ahmadjanov Ilyosbek	
ACCELERATING SOCIOECONOMIC DEVELOPMENT IN RURAL AREAS THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	250
O.Q. Xudayberdiyeva, Z.B. Negmatullayeva	
ISSIQXONALARDAN FOYDALANISHNING OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI BO'YICHA MUAMMONI ASOSLASH VA UNING MILLIY MANFAATLARGA ALOQADORLIGINI ANIQLASH.....	256
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA DON MAHSULOTLARI NARXLARINI SHAKLLANTIRISHDA BOZOR TAJRIBASI	260
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING JAHON TAJRIBASI: MUAMMO VA ISTIQBOL	264
Mamadaliyev Akmaljon	
ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ НАЛОГОВ В НОВОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ.....	269
Зайналов Джахонгир Расулович	
FARG'ONA VODIYSIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	274
Murodxiyeva Feruza Majidovna	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	280
Abduliyeva Gulshan Maxmudovna	
LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN: SOCIO-ECONOMIC TRENDS AND DEVELOPMENT PROSPECTS	285
Razakova Barno Sayfiyeva	
U-NET BASED POLYP SEGMENTATION ON KVASIR-SEG DATASET: PERFORMANCE EVALUATION AND COMPARISON WITH STATE-OF-THE-ART METHODS	289
Mukhriddin Arabboev, Shohruh Begmatov, Sukhrob Bobojanov	



IQTISODIYOT TARMOQLARI VA SOHALARI RIVOJLANISHIDA SUN'IIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH MASALALARI	300
Davletov Islambek Xalikovich, Normirzayev Ulmasjon Muzaffarjon o'g'li	
IQTISODIYOTDA SAMARALI RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI	304
Karimova Iroda Abdusattarovna	
"MENING MAKTABIM" LOYIHASINI OMMALASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	311
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzayeva	
ISSUES OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN THE EDUCATION MARKET	320
Inomiddin Imomov	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ОЦЕНКИ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С УЧЕТОМ СТЕПЕНИ НОВИЗНЫ И ЭФФЕКТОВ	324
Алиева Эльнара Аметовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ЦИФРОВЫХ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ В СИСТЕМУ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	331
Назарова Гулчехра Нурмуханбетовна	
ECONOMIC GROWTH: THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECT	336
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
AGROKLASTERDAGI XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI O'ZARO ALOQALAR MEKANIZMINING BUGUNGI HOLATI	342
Xaydarov Sardor Komil o'g'li	
SIMSIZ ALOQA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TEMIR YO'L STANSIYALARIDA POYEZDLAR HARAKATINI TASHKIL ETISH	350
Joniqulov Egamberdi Shavkat o'g'li	
GENDER SIYOSATI VA DEMOGRAFIK O'SISHNING INSON KAPITALIGA TA'SIRI	357
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
СОСТОЯНИЕ ВИТАМИННО-МИНЕРАЛЬНОГО ОБМЕНА (ВИТАМИН D, КАЛЬЦИЙ, МАГНИЙ, ФОСФОР) У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА С ОСТРОЙ ПНЕВМОНИЕЙ НА ФОНЕ ВЕГЕТАТИВНЫХ ДИСФУНКЦИЙ	364
Абдурахмонов Жасур Нематович, Шарипова Олия Аскаровна, Бахронов Шерзод Самиевич	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI	373
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АО ХУДУДГАЗТАЪМИНОТ	377
Хусанов Дурбек Нишанович	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTIDA NAZORAT GABARIT QURILMALARINING ZAMONAVIY HOLATI, TAHLILI VA HARAKAT TAKRIBI GABARITLARINI ANIQLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH	384
Xidirov Erkin Irgashovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SAMARALI TAQSIMLASHDA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI	391
Amanbaev Amanali Ortazbaevich	
GLOBAL DARAJADA FAOLIYAT YURITADIGAN BRONLASH TIZIMLARINING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI	396
Ismatillaeva Sitara Sayfidin qizi	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI	403
Akmal Shodiyev	



DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA INFRATUZILMA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NORMATIV- HUQUQIY ASOSLARI

Akmal Shodiyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: akmalshodiyev98@gmail.com

ORCID: 0009-0006-6262-2894

Annotatsiya. Ushbu maqola davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishning normativ-huquqiy asoslariga bag'ishlangan. Unda mazkur sohada qo'llanilishi mumkin bo'lgan qonunlar, qonunosti hujjatlar va qarorlar tahlil qilinib, ularning qisqacha mazmuni yoritilgan. Maqolada infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishning ayrim usullari va mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, DXSh modelining asosiy normativ-huquqiy asoslari keltirilib, ular yuzasidan tegishli ilmiy ta'riflar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, xorijiy investitsiya, moliyalashtirish, yalpi ichki mahsulot, xususiy sektor, infratuzilma loyihalari.

Abstract. This article is devoted to the regulatory and legal framework for financing infrastructure projects based on public-private partnership (PPP). The paper analyzes the laws, subordinate regulations, and decisions applicable in this field and provides their brief descriptions. Certain methods and mechanisms of financing infrastructure projects through public-private partnership are examined. In addition, the main regulatory and legal foundations of the PPP model are presented and scientifically interpreted.

Keywords: investment, public-private partnership, foreign investment, financing, gross domestic product, private sector, infrastructure projects.

Аннотация. Данная статья посвящена нормативно-правовым основам финансирования инфраструктурных проектов на основе государственно-частного партнёрства (ГЧП). В работе рассмотрены законы, подзаконные акты и решения, применяемые в данной сфере, а также представлено их краткое содержание. Проанализированы отдельные методы и механизмы финансирования инфраструктурных проектов в рамках государственно-частного партнёрства. Кроме того, раскрыты основные нормативно-правовые основы модели ГЧП и даны соответствующие научные определения.

Ключевые слова: инвестиции, государственно-частное партнёрство, иностранные инвестиции, финансирование, валовой внутренний продукт, частный сектор, инфраструктурные проекты.

KIRISH

Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishda qulay investitsion muhit va investitsion faollikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish determinantlarini baholash, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari, shuningdek fiskal va moliyaviy rag'batlantirish instrumentlarining samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda, xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish sharoitida investitsiyalarni jalb etishning huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish, "infratuzilma loyihalari"ni tasniflash va ularni moliyalashtirish mezonlarini belgilash, infratuzilmaviy loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish modellari hamda ularning samaradorligini baholash,

davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investorlarning faol ishtirokini ta'minlash kabi muhim masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy yo'lga nazar soladigan bo'lsak, rivojlanish dinamikasi doimo bir maromda davom etmaganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, hozirgi O'zbekiston hududi misolida oladigan bo'lsak, mamlakat bugungi kunda uchinchi Renessans, ya'ni yuksalish sari dadil qadam tashlash arafasida turibdi. Demak, tarixiy jarayonlarga murojaat qiladigan bo'lsak, mamlakat rivojlanish, tanazzul va mo'tadil bosqichlarni bosib o'tgan hamda bugungi kunda yangi rivojlanish bosqichi sari qadam tashlamoqda.

O'z navbatida, rivojlanishga ta'sir etgan omillardan biri sifatida davlat boshqaruvi tepasiga odil va adolatli hukmdorlarning kelishi, shuningdek ilm-fanning nisbatan tez sur'atlarda rivojlangan davrlari alohida ajralib turadi. Aksincha, tanazzul davrlari mamlakat boshqaruvi qo'g'irchoq hukmdorlar qo'lida bo'lgan, diniy mutaassiblik kuchaygan va ijtimoiy taraqqiyot sustlashgan davrlarga to'g'ri kelgan. Mamlakat yoki mintaqaning mo'tadil rivojlanish bosqichlarida esa keskin inqilobiy o'zgarishlar kuzatilmagan, aholi turmush darajasi ham keskin pasaymagan bo'lib, tabiiy resurslardan nisbatan barqaror va oqilona foydalanish asosida hayot kechirilgan.

Yangi O'zbekiston uchinchi Renessans sari qadam tashlar ekan, bu jarayon bir vaqtning o'zida davlat boshqaruvi tizimi va mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni, shuningdek ilm-fan va innovatsion rivojlanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Asosiy maqsad mamlakatda istiqomat qilayotgan aholi qatlamlarining turmush darajasini sezilarli darajada yaxshilash, ularni qo'shni davlatlar bilan taqqoslaganda bir necha barobar yuqori darajaga ko'tarish, shu bilan birga mintaqada va butun dunyoda mavjud mamlakatlarning zamon talablariga mos ravishda barqaror rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) modeli O'zbekistonda infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Mazkur model orqali davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro hamkorlik asosida jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlarini qurish, ekspluatatsiya qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi. Mamlakatimizda DXSH modelining samarali joriy etilishi, uni takomillashtirish hamda rag'batlantirish maqsadida aniq normativ-huquqiy asoslar va mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, shuningdek "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hamda qonunosti hujjatlarida davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish tartibini muvofiqlashtirish, infratuzilma loyihalariga jalb qilinadigan investitsiyalarning maqsadli va samarali yo'naltirilishini ta'minlash, xususiy sektor uchun yaratiladigan kafolatlar, imtiyozlar hamda rag'batlantirish omillari belgilab berilgan.

"Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunda davlat-xususiy sheriklik tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Davlat-xususiy sheriklik – davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o'z resurslarini birlashtirishga asoslangan hamkorligidir."

DXSH modelining asosiy normativ-huquqiy jihatlari quyidagilardan iborat:

Loyihalarni tanlash va moliyalashtirish. DXSH modeli asosida amalga oshiriladigan loyihalarni tanlash va moliyalashtirishda aniq mezonlar belgilangan bo'lib, bunda davlat manfaatlari, jamoat ehtiyojlari, moliyaviy samaradorlik va ijtimoiy ahamiyat kabi omillar hisobga olinadi.

Shartnomalar tuzish. DXSH doirasida davlat va xususiy sektor o'rtasida loyihalarni amalga oshirishga oid shartnomalar tuziladi. Ushbu shartnomalarda loyihaning moliyalashtirilishi, qurilishi, ekspluatatsiyasi va boshqarilishi tartibi aniq belgilab qo'yiladi.

Xatarlarni taqsimlash. DXSH loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan xatarlar davlat va xususiy sektor o'rtasida oqilona taqsimlanadi. Davlat loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish majburiyatini olsa, xususiy sektor moliyaviy va texnik xatarlarni o'z zimmasiga oladi.

Hisobdorlik va shaffoflik. DXSH modelining samaradorligini ta'minlashda loyihalarning moliyalashtirilishi, qurilishi va ekspluatatsiyasi jarayonlarida hisobdorlik hamda shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihalarni boshqarish. DXSH loyihalarini samarali amalga oshirish maqsadida maxsus boshqaruv mexanizmlari joriy etilib, davlat va xususiy sektorning o'zaro hamkorligi uzluksiz ta'minlanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirish va ularni davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish bilan bevosita bog'liq muhim huquqiy hujjatlardan biri – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-martdagi 84-sonli "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, shuningdek investitsiya loyihalari yuzasidan tashabbus ko'rsatish va amalga oshirish uchun mas'ul yirik korxonalar tarkibiy bo'linmalarini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroridir. Ushbu qaror infratuzilma, transport va kommunikatsiya sohalarini jadal rivojlantirish, investitsiya va mahalliyashtirish dasturlarining o'z vaqtida va



sifatli bajarilishini ta'minlash, innovatsion va modernizatsiyaga asoslangan loyihalarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli qarorida DXSH loyihalarini moliyalashtirish va boshqarishni samarali tashkil etishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Xususan:

- DXSH loyihalarini tashabbus qilish, ishlab chiqish va xususiy sherikni tanlash;
- DXSH loyihalarini dastlabki baholash tartibini belgilash;
- DXSH loyihasi konsepsiyasini tayyorlash;
- DXSH loyihalarining amalga oshirilishi yuzasidan hisobot yuritish;
- DXSH bitimlarining amal qilish muddati va yuridik maqbulligini ta'minlash;
- loyihaning moliyaviy ta'minlanganligini baholash;
- loyihani amalga oshirish bilan bog'liq xatarlarni taqsimlash;
- innovatsion yondashuvlarni joriy etish va tomonlar manfaatlarining mutanosibligini ta'minlash kabi

vazifalar belgilangan.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat-xususiy sheriklik mamlakat va hududlar miqyosida iqtisodiy hamda ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashning samarali vositasi bo'lib, davlat va mahalliy boshqaruv organlari nazorati ostida xususiy sektor bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat-xususiy sheriklik milliy iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanmagan, ammo ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarini rivojlantirish orqali davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan institutsional va huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Teng huquqlilik, oqilona hamkorlik, adolatli tavakkalchilik va foyda taqsimoti, davlat va xususiy sektor harakatlarini muvofiqlashtirish ushbu tizimning asosini tashkil etadi.

Avvallari DXSH modelini joriy etishdagi asosiy to'siqlardan biri muvofiqlashtiruvchi boshqaruv sohasida yagona normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi bo'lgan. Biroq 2019-yil 10-mayda O'RQ-537-sonli "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi natijasida mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik sohasini tartibga soluvchi bir qator yuqori turuvchi boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham ishlab chiqilgan bo'lib, ular 1-jadvalda keltirilgan.

1.3-jadval. O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'RQ-537-son 10.05.2019-y.	Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida
Prezident qarorlari	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-4581, qabul qilingan sana 30.01.2020-y.	Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-4290, qabul qilingan sana 16.04.2019-y., kuchga kirish sanasi 17.04.2019-y.	Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-3980-son 20.10.2018-y.	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, №PQ-3980, qabul qilingan sana 20.10.2018-y.	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida
Vazirlar Mahkamasi qarorlari	
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 259-son 26.04.2020-y.	Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №184, qabul qilingan sana 01.03.2019-y., kuchga kirish sanasi 02.03.2019-y.	Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, №570, qabul qilingan sana 09.07.2019-y.	Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishga ko'maklashish va moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 1009-son 13.12.2018-y.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida

Ushbu qonun orqali xususiy sektor tashkilotlari kamsitish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik, davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish qoidalariga rioya etish, oshkoralikni ta'minlash, xususiy sherikni tanlash jarayonida xolislik va asoslangan qarorlar qabul qilish, shuningdek o'zaro tenglik tamoyillariga amal qilish bo'yicha javobgarlikka ega bo'ladi. Shu bilan birga, davlat organlari ham mazkur tamoyillarni ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Qonun O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy o'sishiga ko'maklashish va barqaror rivojlanishini ta'minlash, davlat xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari bilan uyg'un holda hal etishga qaratilgan.

Shuningdek, unda davlat-xususiy sheriklikni amaliyotga tatbiq etish shartlari va jarayonlari ham belgilab berilgan. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartnomasining amal qilish muddati qonun hujjatlariga muvofiq kamida uch yil va ko'pi bilan qirq to'qqiz yil etib belgilangan. Bundan tashqari, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil etishning tashkiliy asosini shakllantiruvchi qator huquqiy me'yorlar qabul qilingan.

2018-2020-yillarda mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilishga mas'ul organlar tomonidan tadbirkorlikning turli sohalarida ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi 17 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Avvalo, davlat-xususiy sheriklikning institutsional va huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida manfaatdor vazirlik va idoralar ijtimoiy sohada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini o'z ichiga olgan iqtisodiy rivojlanish dasturlarini shakllantirishi zarur. Bundan tashqari, vazirlik va idoralar mazkur dasturlar doirasida maxsus loyiha konsepsiyalari hamda tarmoqlararo hamkorlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishi lozim.

Ushbu dasturlar moliyalashtirish sxemalarini shakllantirish orqali amalga oshirilishi, shuningdek davlat va xususiy sektor hamkorlarining davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish jarayonida, jumladan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash va boshqarishda faol ishtirokini ta'minlashi kerak.

Davlat-xususiy sheriklik nafaqat infratuzilma va ijtimoiy-madaniy rivojlanish darajasini belgilovchi omil, balki vaqt va taraqqiyot bilan bog'liq strategik jarayon hisoblanadi. Ayni paytda davlat-xususiy sheriklik tizimining institutsional tarkibiy qismlari bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda, bu esa uni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka erishishda yanada keng qo'llash imkonini bermoqda.

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarida xususiy sektor hukumat tomonidan belgilangan yo'riqnoma va qoidalarga muvofiq holda loyihalarni boshqaradi va moliyalashtiradi. Har qanday mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri uning ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmasining rivojlanganlik darajasidir. Infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi korporativ faoliyatga to'sqinlik qiladi, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini pasaytiradi hamda iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi.

Shu munosabat bilan, mamlakatimiz infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish zamonaviy jahon amaliyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalarida xususiy sektor hukumat tomonidan belgilangan qoidalar va texnik talablariga qat'iy rioya qilgan holda loyihalarni moliyalashtirish va boshqarish bilan shug'ullanadi. Mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash salohiyati ko'p jihatdan uning ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmasi holatiga bog'liq bo'lib, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy o'sishni susaytiradi, aholiga xizmat ko'rsatish darajasini pasaytiradi va tijorat munosabatlarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu bois, zamonaviy jahon amaliyotida davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmani rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish bosqichlari



DXSh modeli infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Uning samarali amalga oshirilishi uchun aniq normativ-huquqiy asoslar va mexanizmlar mavjud bo'lishi zarur. Yuqoridagilarni hisobga olib berilgan takliflarni amalga oshirish orqali DXSh modelini yanada samarali va shaffof qilish mumkin, bu esa O'zbekistonda infratuzilmani rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadlarini oshirishda qulay investitsion muhit va investitsion faollikning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, asosiy kapitalga yo'naltiriladigan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish determinantlarini baholash, investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari, shuningdek fiskal va moliyaviy rag'batlantirish instrumentlarining samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) – milliy iqtisodiyotning yetarlicha rivojlanmagan va ijtimoiy ahamiyatga ega tarmoqlarining o'sishiga ko'maklashish orqali davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, xususiy sektor hamda davlat yoki mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida shakllanadigan institutsional va huquqiy munosabatlar tizimidir. Mazkur tizim teng huquqlilik, oqilona hamkorlik, adolatli tavakkalchilik va foyda taqsimoti, shuningdek davlat va xususiy sektor harakatlarini muvofiqlashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini loyiha shartlari va xususiyatlariga mos ravishda samarali muvofiqlashtirish uchun xususiy sektor va hukumat hamkorligining amaliy hamda mos modellari va usullarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda qo'llanilayotgan davlat-xususiy sheriklik modellari iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tatbiq etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmon. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-sonli "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-sonli Farmon. <https://lex.uz/docs/-3107036?ONDATE=01.05.2021>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3980-sonli Qaror. <https://lex.uz/docs/-4007891>
5. Йескомб Э. Р. Государственно-частное партнерство: основные принципы финансирования : пер. с англ. М. : Альпина Паблишер, 2015. 457 с.
6. Gerrard M. B. What Are Public-Private Partnerships, and How Do They Differ from Privatizations? // Finance & Development. 2001. Vol. 38. No. 3. P. 107.
7. Агазарян Н. В. Анализ мирового опыта применения механизма государственно-частного партнерства // Государственно-частное партнерство. 2016. Т. 3. № 2. С. 151–172. DOI: 10.18334/ppp.3.2.37071.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100